

elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.1 (2)
2024

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> ELEKTRON TIJORATNING MOHIYATI, RIVOJLANISH TARIXI VA MUAMMOLAR	3-11
<i>Olimjonova Hulkar To'lqin qizi</i> SUG'URTA KOMPANIYALARINING MILLIY FOND BOZORIDAGI FAOL ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRUVCHI HUQUQIY MEXANIZMLAR	12-20
<i>Salimov Islombek Bobir o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATDA INTERNET-REKLAMA FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR. ILMIY TAHLIL	21-27
<i>Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li</i> MUSHARAKA VA MUDORABA: ISLOMIY MOLIYA VOSITALARI VA ULARNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI ODDIY SHIRKAT SHARTNOMASIGA INTEGRATSIYASI	28-37
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> METAVERSE PLATFORMALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING GLOBAL STANDARTI VA XALQARO HAMKORLIK	38-47
<i>Razzaqova E'zoza Yusup qizi</i> RAQOBAT HUQUQIDA USTUN MAVQE TUSHUNCHASI	48-56
<i>Allanazarova Xavajon Axmedovna</i> DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING YURIDIK SHAXSLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI	57-64
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> FUQAROLIK VA IQTISODIY PROTSESSDA SHAFFOFLIK MUAMMOLARI	65-77

RAQOBAT HUQUQIDA USTUN MAVQE TUSHUNCHASI

Razzaqova E'zoza Yusup qizi | razzaeyusup@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali biz raqobat huquqi va uning tarixi, ustun mavqe tushunchasi, uni suiiste'mol qilish holatlari, korxonalar va xo'jalik yurituvchi subyektlar va bozor subyektlari qay holatda ustun mavqega ega bo'lishlari va aynan ushbu dominant pozitsiyani qay tartibda suiiste'mol qilishlari haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: raqobat huquqi tarixi, ustun mavqe, ustun mavqeni suiiste'mol qilish, monopol past narx, monopol yuqori narx, bozor ulushi.

THE CONCEPT OF A DOMINANT POSITION IN COMPETITION LAW

Razzakova Ezoza Yusup kizi

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. Through this article, we will discuss the law of competition and its history, the concept of a dominant position, cases of its abuse, in which cases enterprises and economic subjects and market subjects have a dominant position and exactly how they abuse this dominant position. we are talking about.

Key words: history of competition law, dominant position, abuse of dominant position, monopoly low price, monopoly high price, market share.

ПОНЯТИЕ ДОМИНИРУЮЩЕГО ПОЛОЖЕНИЯ В КОНКУРЕНЦИОННОМ ПРАВЕ

Раззакова Эзола Юсуп кизи

Студент магистратуры Ташкентского государственного юридического университета.

Аннотация. В этой статье мы обсудим закон конкуренции и его историю, концепцию доминирующего положения, случаи его злоупотребления, в каких случаях предприятия и экономические субъекты и субъекты рынка имеют доминирующее положение и как именно они злоупотребляют этим доминирующим положением.

Ключевые слова: история конкурентного права, доминирующее положение, злоупотребление доминирующим положением, монопольно низкая цена, монопольно высокая цена, доля рынка.

Kirish. Mamlakatlar rivojlanib borar ekan, ularning huquq tizimi ham yanada qulay va keng qamrovli tus olib boradi. Ayniqsa, bugungi shiddat bilan o'sib borayotgan raqamli bozorda uni tartibga solish uchun yangi va samarali normalarning zarur bo'layotganligi bor gap. Bugungi kunda biznes huquqi, xususan raqobat huquqi ham boshqa huquq sohalari singari odimlamogda. Ayniqsa, elektron bozorda raqobat huquqi jaddallashishi bilan bir qatorda uni chetlab o'tish holatlari ham kuzatilmoqda. Bunday vaziyatlarda raqobat huquqining ajralmas qismi hisoblangan ustun mavqe tushunchasi ham alohida e'tiborga molikdir. Ustun mavqe tushunchasiga ta'rif berishdan oldin, raqobat tushunchasini yoritib o'tamiz.

Raqobat huquqi tushunchasi va tarixi. F.A. Brokgauz va E.A. Efronlarning ensiklopedik lug'atida raqobat tushunchasi shunday yoritilgan " raqobat bir maqsadga erishish uchun bir-biriga raqobatdosh bir nechta shaxslarning (kompaniyalarning) harakatidir. Raqobatchilar bir-birlarini siqib chiqarishga, o'zlarining egaliklarini o'rnatishga intilishadi. Shu sababdan, raqobat hamisha kurash xarakteriga ega"[1]. **Raqobat** — xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi.[2] Raqoab so'zining lug'aviy ma'nosiga keladigan bo'lsak, raqobat arabcha so'z bo'lib, "nazorat, kuzatish"

ma'nolarini anglatadi[3]. Shuningdek, mazkur so'z iqtisodiy ma'noda mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurash deyish ham mumkin[4]. N.Beknozovning ta'kidlashicha esa, raqobat - bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi[5]. Bundan ko'rinib turibdiki, raqobat tushunchasi bir-biriga qarshi subyektlarning bir maqsad yo'lidagi doimiy kurashi ekan. Raqobat huquqi tushunchasiga keladigan bo'lsak, ayni raqobatdosh taraflarning harakatlari qonun chegarasidan chiqmasligini nazorat qiluvchi huquqqa raqobat huquqi deyiladi. Raqobat qonunchiligi jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan davlat organlarining O'zbekiston Respublikasi hududida va (yoki) undan tashqarida sodir etiladigan, O'zbekiston Respublikasidagi tovar yoki moliya bozorida raqobatning cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladiganyoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlariga (harakatsizligiga) nisbatan tatbiq etiladi[6].

Shuningdek, raqobat huquqining tarixi haqida ham so'z yuritish alohida ahamiyatga ega, sababi bu orqali ushbu soha tarixan dolzarb va keng qamrovli ekanligini yoritish mumkin. Avvalo, umumiy huquqda raqobat huquqi tarixini ko'rib chiqamiz. Umumiy huquq an'analarida raqobat huquqining ildizlari o'rta asrlardagi Angliya va "savdoni cheklash" tushunchasiga borib taqaladi. Bu tushuncha 19-asrda "Xorner Gravesga qarshi" (1831) va "Mogul Steamship Co.ga qarshi MakGregor, Gow & Co" (1889) kabi holatlar bilan yanada rivojlantirilib, zamonaviy monopoliyaga qarshi tamoyillarga asos solgan[7]. 1890 yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida qabul qilingan "Shermanning monopoliyaga qarshi qonuni" raqobatni cheklovchi ayrim biznes amaliyotlarini taqiqlovchi raqobat qonunchiligining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi[8]. "Kleyton" qonuni va Federal savdo komissiyasi to'g'risidagi qonun kabi keyingi qonunlar monopoliyaga qarshi kurashni yanada kuchaytirdi. Kleyton monopoliyaga qarshi qonuni:

- 1914-yilgi Kleytonning Monopoliyaga qarshi qonuni raqobatga qarshi amaliyotlarning oldini olishga va adolatli raqobatni rivojlantirishga qaratilgan qoidalarni o'z ichiga oladi.

- Kleyton qonunining 7-bo'limi raqobatni sezilarli darajada kamaytiradigan yoki monopoliyaga olib kelishi mumkin bo'lgan qo'shilish va sotib olishlarga qaratilgan. U "hukmron mavqe" atamasini ishlatmasa-da, u bozorda sezilarli kuchga ega bo'lgan firmalarning potensial raqobatga qarshi ta'siri bilan shug'ullanadi[9].

Fuqarolik huquqi yurisdiksiyalarida ham raqobat huquqi vaqt o'tishi bilan rivojlanib bordi, ko'pincha har bir mamlakatga xos bo'lgan iqtisodiy va siyosiy omillar ta'sirida ushbu soha rivojlandi. Diqqatga sazovor jihatlardan biri adolatli biznes amaliyotini ta'minlash va monopolistik xatti-harakatlarning oldini olish uchun bozorda raqobatni himoya qilishga qaratilgan. Germaniyada raqobat huquqining ilk namunalaridan biri XIX asrning oxirida Germaniyada raqobat to'g'risidagi qonunning (Gesetz gegen Wettbewerbsbeschränkungen - GWB) 1957-yilda kuchga kirishi bilan kuzatilgan.[10] Fransiyada raqobat huquqi 19-asrda adolatli raqobatni rivojlantirishga qaratilgan turli qonunlarning qabul qilinishi bilan ildiz otgan. Fransiyada raqobat to'g'risidagi qonunning zamonaviy asoslari, birinchi navbatda, Frantsiya Savdo kodeksi, xususan, 420-modda prim 1 dan 420-modda prim 7 gacha bo'lgan moddalar bilan tartibga solinadi.[11] Ispaniyaning raqobat huquqi rejimi 1970-yillarning oxirida mamlakatning demokratiyaga o'tishi bilan rivojlandi. Ispaniyaning raqobat to'g'risidagi qonuni (Ley de Defensa de la Competencia) 1989 yilda qabul qilingan va o'zgaruvchan bozor dinamikasiga moslashish uchun bir necha bor o'zgartirilgan.[12]

Raqobat qonunchiligida ustun mavqe deganda kompaniya yoki kompaniyalar guruhi sezilarli darajada bozor kuchiga ega bo'lib, ularga raqobat bosimi, mijozlar yoki yetkazib beruvchilardan mustaqil ravishda o'zini tutish imkonini beradigan vaziyat tushuniladi. Dominant firmalar narxlarga ta'sir ko'rsatishi, taklifni nazorat qilishi va raqobatchilarni bozordan chiqarib yuborishi mumkin, bu esa iste'molchilar farovonligiga zarar yetkazishi mumkin. Monopoliyaga qarshi idoralar adolatli raqobatni ta'minlash va ustun mavqeni suiiste'mol qilishning oldini olish uchun bozorni tartibga soladi, masalan, narxlarni belgilash, yirtqich narxlar yoki adolatsiz savdo amaliyotlari kuzatilishini oldini olishga harakat qilishadi. Raqobat qonunchiligida ustunlik mavqei kompaniyaning ma'lum bir bozorda muhim kuch yoki nazoratga ega bo'lganlik holatini anglatadi. Bu bozor ulushi, moliyaviy resurslar, texnologik ustunlik yoki tartibga solish afzalliklari kabi omillar bilan belgilanishi mumkin. Dominant mavqe kompaniyaga raqobatchilardan, mijozlardan va pirovardida

iste'molchilardan mustaqil harakat qilish imkonini beradi. Garchi ustun mavqega ega bo'lish o'z-o'zidan qonuniy hisoblansa-da, raqobatni cheklash, narxlarni manipulyatsiya qilish yoki raqobatchilarni nohaq ravishda chetlashtirish uchun ushbu pozitsiyani suiiste'mol qilish holatlari monopoliyaga qarshi qonunlarni buzishi mumkin[13]. Biz Yevropa kengashida ustun mavqe tushunchasi qanday talqin etilishini ko'rgan holda milliy huquq tizimiga yuzlanamiz. Tovar yoki moliya bozoridagi xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining unga o'z faoliyatini raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ushbu boshqa subyektlarning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holati ustun mavqeyedir.

Tovar yoki moliya bozorida quyidagilar ustun mavqe deb e'tirof etiladi:

agar xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining raqobatchilari mavjud bo'lmasa;

agar xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining bozordagi ulushi 40 foizni va undan ortiqni tashkil etsa;

agar xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tabiiy monopoliya subyektini deb e'tirof etilsa;

agar xo'jalik yurituvchi subyektga yoki shaxslar guruhiga muayyan tovarlarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish yoxud olish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda mutlaq va (yoki) eksklyuziv huquq berilgan bo'lsa.

Oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz ming baravaridan kamroqni tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining (bundan tabiiy monopoliya subyektlari, mahsulotlarining narxlari davlat tomonidan tartibga solinadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar mustasno) tovar yoki moliya bozoridagi holati ustun mavqe deb e'tirof etilmaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining tovar yoki moliya bozoridagi ustun mavqeyi e'tirof etilgan kundan e'tiboran uch kunlik muddatda vakolatli davlat organi bu haqda ularga xabarnoma yuboradi, mazkur xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining tovarlariga nisbatan narxlar davlat tomonidan tartibga solingan taqdirda esa bu haqda narxni tartibga soluvchi organga ham xabar beradi[14] O'zbekiston Respublikasi "Raqobat

to'g'risida"gi qonunida ustun mavqega yuqoridagi ta'rif berilgan va subyekt ustun mavqega ega deb e'tirof etilishi uchun ma'lum shartlarni o'zida mujassamlagan bo'lishi lozim.

Ustun mavqe – tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holat.[15] Shubhasiz, raqobat huquqidagi ustun mavqega oid aniq tushunchalari bilan tanilgan professor - Pensilvaniya universiteti yuridik fakulteti professori Gerbert Xovenkamp. Xovenkamp o'zining "Monopoliyaga qarshi korxonalar: prinsip va ijro" kitobida raqobat huquqidagi ustunlik tushunchasini muhokama qiladi. Xovenkampning fikriga ko'ra, faqat ustun mavqe raqobat uchun zararli emas; uni suiiste'mol qilish tashvish uyg'otadi. Uning ta'kidlashicha, raqobat to'g'risidagi qonun faqat bozor ulushi yoki hajmiga qarab firmalarni nishonga olishdan ko'ra, dominant firmalarning raqobatga qarshi xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan bo'lishi kerak. Xovenkampning so'zlariga ko'ra, agar firma o'z bozor kuchidan raqobatni to'xtatish yoki iste'molchilarga zarar yetkazish uchun yirtqich narxlarni belgilash, eksklyuziv bitimlar yoki bog'lash kelishuvlari kabi amaliyotlar yo'lida shug'ullansa, ustunlik muammoli bo'ladi. U firma xulq-atvorining raqobat va iste'molchilar farovonligiga ta'sirini baholashda, faqat dominant pozitsiyaning rasmiy ko'rsatkichlariga tayanmaslik muhimligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, Xovenkampning nuqtai nazari raqobat qonunchiligidagi ustunlik pozitsiyalarini hal qilishda firmalarning o'ziga xos xulq-atvori va uning bozor dinamikasi va iste'molchilar farovonligiga ta'sirini hisobga oladigan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.[16] Xalqaro qonunchilik miqyosid ustun mavqe tushunchasiga ta'rif berar ekanmiz, Germaniya qonunchiligi bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniya raqobat qonunchiligiga ko'ra, bozorda ustun mavqega ega bo'lgan korxonaning bir tomonlama xatti-harakati Germaniyaning raqobatni cheklash to'g'risidagi qonunining (ARC) 18, 19, 19a va 20-bo'limlari bilan tartibga solinadi, bu esa (yakka yoki jamoaviy) ustun mavqeni suiiste'mol qilishni taqiqlaydi. Boshqa savdo sheriklariga nisbatan nisbatan bozorda kuchliroq bo'lgan korxonalar tomonidan qo'pol xatti-harakatlarning o'ziga xos turlari, va – 2021-yil yanvar oyidan boshlab – bozorda ustunlikni talab

qilmaydigan, lekin bozordagi faoliyati natijasida bozor hokimiyatini egallab oladigan “bozorlararo muhim ahamiyatga ega” korxonalarining ayrim xatti-harakatlari nazorat ostiga olinadi.[17] Boshqa davlatlar qonunchiligi singari Germaniya huquqida ham bozorda raqobat mavjud bo’lsada kompaniya qolganlarga nisbatan sezilarli kuchga ega ekanligi, bozorda ustun mavqega ega bo’lish uchun ma’lum bir salmoqli bozor ulushiga ega ekanligi singari belgilar orqali ustun mavqega ega bo’lgan bozor subyektlarini ajrata olish mumkin. Istalgan davlat qonunchiligida ustun mavqeni suiiste’mol qilish quyidagi umumiy holatlarni o’zida jamlaydi.

Yirtqich narxlar: raqobatchilarni bozordan siqib chiqarish uchun tovarlarni arzon narxga sotish;

Shartnomaga kamsituvchi shartlarni o’rnatish: bu holatda mijoz va raqobatchi yetkazib beruvchilar bilan tuzilajak shartnoma shartlarining kamsituvchi xarakterga ega bo’lishi;

Shartnoma tuzishdan sababsiz bosh tortish: asosli va asossiz bo’lgan hollarda raqobatchilarga, mijozlarga yoki yetkazib beruvchilarga muhim tovar yoki mahsulotni yetkazib berishdan bosh tortish;

Narxlarda farqning bo’lishi: obyektiv asoslarsiz turli xil mijozlarga turli xil narxlar belgilash. Shu va shunga o’xshash harakatlar orqali ustun mavqega ega bo’lgan bozor subyektlari o’z ustun mavqelaridan qonunga xilof tarzda foydalanish holatlari butun dunyo amaliyotida uchrab turadi. Ustun mavqega ega bo’lgan subyekt monopol past narxlar orqali ustun mavqeni suiiste’mol qilishi mumkin. Tovarining monopol past narxi haqida milliy qonunchilikda quyidagicha fikr yuritilgan.

Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo’lgan xo’jalik yurituvchi subyekt tomonidan tovarning tannarxidan past darajada va mazkur tovarni sotishdan zarar keltiradigan darajada belgilanadigan, natijada raqobat cheklanishiga olib keladigan narx tovarning monopol past narxidir.[18] Xizmatlarning monopol past narxi xizmat ko’rsatish uchun zarur xarajatlar qiymatini qoplamaydigan va foyda olishni ko’zda tutmaydigan, buning natijasida raqobatni cheklash, bozordan raqobatchilarni siqib chiqarish va raqobat to’g’risidagi qonun hujjatlariga zid oqibatlari bo’lgan moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo’jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tomonidan belgilanadigan narxlar hisoblanadi.[19] Shu bilan bir qatorda ustun mavqeni suiiste’mol qilish harakatida bo’lgan subyektlar tovarning monopol

yuqori narxlaridan ham ustamonlik bilan foydalanishadi. Agar tovarni realizatsiya qilish narxi hamda uni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan xarajatlar o'rtasidagi tafovut juda yuqori bo'lsa yoki tovarning sifatini pasaytirish hisobidan qo'shimcha foyda olishga qaratilgan bo'lsa, tovarning tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan belgilanadigan narxi tovarning monopol yuqori narxidir.[20] Yuqoridagilar orqali biz raqobat huquqi va uning tarixi, ustun mavqe tushunchasi, uni suiiste'mol qilish holatlari, korxonalar va xo'jalik yurituvchi subyektlar va bozor subyektlari qay holatda ustun mavqega ega bo'lishlari va aynan ushbu dominant pozitsiyani qay tartibda suiiste'mol qilishlari haqida so'z yuritdik. Biroq ayni damda ba'zi ko'zga tashlanmas kamchiliklar bizning qonunchilikda yo'q emas, ulardan biri kartellardan bozorda ulushi 40% ga yetib bormasada, 40 %dan kam biroq sezilarli kuchga ega bo'lgan bir nechta subyektlar kartel kelishuvlari orqali bozorga ustun mavqe suiiste'mol qilingandan kam bo'lmagan ko'lamda zarar yetkazishi mumkin. Misol qilib ikki firma ularning har birining ulushi bozorda 20% ni tashkil etsa, ular kartel kelishuvi orqali qilgan harakatlari bozorga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu boisdan qonunchilikda ustun mavqega ega bo'lmagan biroq kelishib olingan harakat yoki kartellar orqali raqobat muhitiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi subyektlar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Энциклопедический словарь. Издатели: Ф.А. Брокгауз, И.А. Ефрон. Т. XVI. Спб, 1895
2. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi Qonuni, 03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son 4-modda <https://lex.uz/docs/-6518381>
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madaliyev tahriri ostida "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti.- Toshkent, 2006-2008. -360-bet.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati
5. Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik mas'ul muharrirlar: I.f.d., prof. J.T. Ro'ziyev.- T.,2005.-B.170
6. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi Qonuni, 03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son 3-modda <https://lex.uz/docs/-6518381>

7. Horner v. Graves (1831) https://appliedantitrust.com/02_early_foundations/1_eng_common_law/horner_graves1831.pdf
8. Sherman anti-trust law act(1890) <https://www.archives.gov/milestone-documents/sherman-anti-trust-act#:~:text=The%20Sherman%20Anti-Trust%20Act%20authorized%20the%20federal%20government%20to,foreign%20nations%22%20was%20declared%20illegal>
9. Clayton antitrust act(1914) <https://www.britannica.com/money/Clayton-Antitrust-Act>
10. Gesetz gegen Wettbewerbsbeschränkungen -
GWB https://de.wikipedia.org/wiki/Gesetz_gegen_Wettbewerbsbeschr%C3%A4nkungen#:~:text=Das%20Gesetz%20bezweckt%20die%20Erhaltung,Begrenzung%20des%20Wettbewerbsverhaltens%20unabh%C3%A4ngiger%20Marktteilnehmer.
11. The Legislative Framework of the Cartel Prohibition [https://iclg.com/practice-areas/cartels-and-lenieny-laws-and-regulations/france#:~:text=420%2D1%20of%20the%20Commercial%20Code%20\(almost%20identical%20to%20article,object%20or%20may%20have%20the](https://iclg.com/practice-areas/cartels-and-lenieny-laws-and-regulations/france#:~:text=420%2D1%20of%20the%20Commercial%20Code%20(almost%20identical%20to%20article,object%20or%20may%20have%20the)
12. Ley de Defensa de la Competencia <https://www.boe.es/buscar/act.php?id=BOE-A-2007-12946>
13. European Commission - Dominant position (https://ec.europa.eu/competition/antitrust/overview_en.html)
14. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi Qonuni, 03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son 13-modda <https://lex.uz/docs/-6518381>
15. Raqobat huquqi darslik. TDYU 2018. 47-bet
16. "The Antitrust Enterprise: Principle and Execution," author Herbert Hovenkamp. 1-1-2006. https://scholarship.law.upenn.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=4342&context=faculty_scholarship
17. Abuse dominant position in Germany <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=91884476-72f4-4260-bc91-56e63962aafa#:~:text=Under%20German%20competition%20law%2C%20Unilateral,behaviour%20by%20enterprises%20that%20have>
18. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi Qonuni, 03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son 12-modda <https://lex.uz/docs/-6518381>
19. Raqobat huquqi darslik. TDYU 2018. 57-bet
20. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi Qonuni, 03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son 11-modda <https://lex.uz/docs/-6518381>